NORASMIY MULOQOTLARDA ETIKETLARNING AMAL QILINISHI

Abduvohidova Muslima Abduhamid qizi, O‘tkirova Latofat*
Oriental univesiteti 1-kurs talabasi
*Ilmiy maslahatchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20198356

Annotatsiya. *Ushbu maqolada norasmiy muloqot jarayonida nutqiy etiketlarning qo‘llanishi va ularning muloqot samaradorligidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Conversation” (konversatsion tahlil) metodining nazariy asoslari yoritilib, oilaviy, do‘stlar va jamoadoshlar davrasidagi muloqot shakllari misollar orqali tahlil etiladi. Maqolada sharqona muloqot madaniyati, yosh va gender xususiyatlarining suhbat jarayoniga ta’siri ham ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, kundalik muloqotlarda amal qilinishi zarur bo‘lgan nutqiy etiketlar tavsiya etilib, ularning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashdagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Norasmiy muloqot, nutqiy etiket, konversatsion tahlil, Conversation metodi, muloqot madaniyati, sharqona etiket, adresant, adresat, oilaviy muloqot, jamoadoshlar muloqoti, do‘stlar davrasi, gender xususiyati, kommunikativ jarayon.*

Annotation. *This article analyzes the use of speech etiquette in informal communication and its role in ensuring effective interaction. The study explains the theoretical foundations of the “Conversation” (conversational analysis) method and examines different forms of communication within family circles, among friends, and among colleagues through various examples. The article also highlights the influence of Eastern communication culture, age, and gender characteristics on the communication process. In addition, it provides recommendations on speech etiquette that should be followed in everyday communication and reveals their importance in strengthening social relationships in society.*

Keywords: *Informal communication, speech etiquette, conversational analysis, Conversation method, communication culture, Eastern etiquette, addresser, addressee, family communication, team communication, communication among friends, gender characteristics, communicative process.*

Muloqot jarayoni uning ishtirokchilari va mavzusiga ko‘ra rasmiy yoki norasmiy tarzda amalga oshadi. Biz muloqot jarayonini tadqiq etar ekanmiz bevosita psixologiya fani bilan hamkorlikda ish ko‘ramiz. Zero, insonning nutqiy faoliyati o‘z psixologik jarayonlari bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Ushbu maqolamiz orqali norasmiy muloqotlarda etiketlarning amal qilinishiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Tahlilimizni esa “Conversation” metodi misolida olib boramiz.

Muloqot tizimini tahlil qilish borasida qo‘llanilayotgan metodlarning asosiy qismi, xuddi tilshunoslikning boshqa sohalarida bo‘lganidek, tizim strukturasiga xos belgilarni va ushbu strukturani tashkil qiluvchi element, uzvlarni farqlash, ularni guruhlarga ajratish sari yo‘naltirilgan. Ana shunday metodlardan biri Amerika sotsiolingvistikasida shakllangan konversatsion tahlil (ing. Conversation- "so‘zlashish") metodi bo‘lib, uning doirasida o‘ta tartibsizdek tuyulayotgan so‘zlashuv jarayonida qandaydir tartib bo‘lishi va bu tartib nimalar vositasida boshqarib, nazorat qilinib borilishini o‘rganish maqsadi qo‘yiladi. Bu metodologik

tamoyillarga asoslangan tahlil jarayonida tadqiqotchilarning diqqat-markazida suhbatdoshlarning o‘zaro hamkorligining qanday ta`minlanishi, oddiyroq qilib aytganda, suhbat davomida ular kim va qachon gapirishini qanday belgilashlari masalasi turadi. Bu sohadagi ilk tadqiqotlar mualliflari Harvi Saks, O‘manuel Shegloff va Geyl Jeffersonlar nutqni faoliyat turi sifatida qarashib, muloqot ishtirokchilarining o‘zaro munosabatga kirishishi jarayonida qanday harakatlar, aniqrog`i, faoliyat turlari (masalan, dialogning boshlanishi va tugallanishi, so‘zlashish navbatining almashinuvi hamda ta`rif qilish va uning qabul yoki inkor etilishi kabi harakatlarning bajarilishi) voqelanishi kabi masalalar bilan qiziqqan edilar.(1:24)

Norasmiy doiralardagi muloqot eng ko‘p murojaat etiladigan va eng sodda hisoblanadigan muloqot turidir. Lekin aslida ham shundaymi? Oddiy va sodda ko‘ringan aksar narsalar mohiyatan murakkab bo‘ladi, kundalik muloqot ham aynan shunday. Murakkab deb baholanayotgan ushbu jarayon, har kunda do‘stlar, oila, yaqinlar, qarindoshlar yoki va boshqa norasmiy davralarda kechadigan suhbatlarimiz yig‘indisidir. Aynan shu kichkina suhbatlar orqali katta muammolarga kalit topilishi mumkin. Shunday ekan norasmiy muloqot etiketlarini tadqiq qilish muhim masalalardandir.

Avvalambor, norasmiy muloqotni komponentlar tarkibiga ko‘ra uch turga ajratish mumkin:

1. Oila davrasidagi muloqot.
2. Do‘stlar va tanishlar davrasidagi muloqot;.
3. Jamoadoshlar davrasidagi muloqot.

Oila davrasidagi muloqotlar kundalik muloqotning eng asosiy ko‘rinishlari hisoblanadi. Har bir shaxsning ilk muloqot ko‘nikmasi oilada shakllanganligi sababli muloqotning bu shaklida adresat (so‘zlovchi)dan ham, adresant (tinglovchi)dan ham katta mas’uliyat talab qilinadi. Ayniqsa, sharq xalqlari oilalarida muloqot etiketlariga alohida e’tibor berishadi. O‘zbek oilalaridagi sharqona muloqotning yorqin misolini milliy romanchiligimizning poydevorini qo‘ygan A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi quydagi suhbat jarayonida ham ko‘rishimiz mumkin:

- O‘g‘lim, hali sen eshitdingmi, yo‘qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq…

Otabek, ma’lumki, ularning “qilib qo‘yg‘an yoki qilmoqchi bo‘lg‘an ishlarini” albatta bilar edi. Shundog‘ bo‘lsa ham, bilmaganga solindi:

- Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘on ishlari albatta noma’qul bo‘lmas, - dedi.

Hoji o‘g‘lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi. Istehzo aralash xotiniga qarab oldi...” (2:127,128)

Yuqoridagi misol orqali ota-ona va farzand o‘rtasidagi muloqotning sharqona etiketi yillar, asrlar davomida shakllanib kelayotganligiga yana bir bor amin bo‘ldik. Oila davrasida bo‘ladigan muloqotlarda kichik yoshdagilar katta yoshdagilarga “Assalomu alaykum", deb murojaatni boshlab bersa, keyingi muloqot bosqichlari yoshi kattalar ustunligida kechadi. Masalan: *U yaqin kelib salomlashdi.*

-Ha, kelin?- dedi u qandaydir quruq ohangda.

- Kuyovni izlab kepsiz-da! (3:297)

Misolimizdan ko‘rinib turibdiki, savol bilan murojaat qiluvchi ham, qo‘shimcha javob qaytaruvchi ham yoshi katta adresant. Oila davrasidagi ko‘pgina muloqotlarda yoshi kattalar bilan bo‘ladigan suhbatlarga alohida e’tibor berilib, bolalar bilan bo‘ladigan suhbatlarda esa bu holat biroz o‘zgarganligini ko‘ramiz. Bolalarning oilaviy muhitda, muloqotga kirishishining ruhiy tayyorgarlik holati izchil tekshirilganda shu narsa oydinlashdiki, ba’zi bolalar oilada

to‘ng‘ich farzand bo‘lib, ular bilan muloqotga kirishuvchilar soni boshqa bolalarnikiga nisbatan ancha kam: ular bilan, asosan, faqat ota-onasigina doimiy muloqotda bo‘ladi. Bunday bolalarga maktabgacha ta’lim muassasasi xodimlari alohida e’tibor bilan munosabatda bo‘lishlari zarur. Chunki ijtimoiy hayotga endi kirib kelayotgan go‘dak kelajakda o‘zining mustaqil o‘rnini topishi, ruhiy kechinmalarini to‘g‘ri yo‘lga solishi, qolaversa, jamiyat uchun foydali inson bo‘lib yetishishida uning lisoniy axloqi katta ahamiyatga ega. (4:76)

Sharqona oila davrasidagi muloqotda yosh xususiyati birlamchi jihat bo‘lsa, gender xususiyati ikkinchi muhim jihatlardan. Gender (jins) xususiyatining oila davrasidagi muloqotlarda ikkilamchi xususiyat ekanligini biz har kun oiladagi suhbatlarda otalarning, akalarning xatto ukalarning ham ustunligida ko‘rishimiz mumkin. Bu holat ham bevosita sharq xalqlari an’analariga bog’liqdir.

- *Nega otlanib oldingiz? – dedi astoydil ranjib.*
- *Bolalar yolg‘iz, - dedi yangasi tuflisini kiyarkan.* (3:256)

O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub “Yanga” nomli hikoyadan olingan ushbu parchada yanga yosh jihatdan ustun bo‘lishiga qaramasdan muloqot ukaning ustunligida boshlanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, suhbatdoshlarning gender xususiyati ham suhbat jarayoni uchun alohida ahamiyatga ega.

Kundalik muloqotining ikkinchi ko‘rinishi **do‘stlar va tanishlar davrasidagi muloqot** bo‘lib, bu turdagi muloqot erkin tusda bo‘ladi. Muloqotdagi komponentlarining mavqeyiga ko‘ra simmetrik (teng komponentli) muloqot hisoblaganligidan komponentlarning vazifasi bir xil bo‘ladi. Muloqot bosqichlaridan daromad bosqichi ya’ni muddaoni asoslash jarayoni do‘stlar va tanishlar davrasida erkin va hazil-mutoyibaga yaqinligi bilan boshqa davralardagi muloqotlarning daromad bosqichidan ajralib turadi. **Masalan:**

-Bu boshsizga bosh olib berishim kerak, pul berib tura olmaysanmi? (Ko‘chadagi suhbatlardan) deya do‘stlar o‘zaro yordam so‘rashar ekan bosh olib berishim kerak” deganda bosh kiyimni nazarda tutyapti. Conversation metodiga ko‘ra ushbu muloqot jarayoni tartibsiz kechadigan jarayon bo‘lib, bu jarayon me’yoriy etiketlar asosidagina ma’lum qoliplarga solinishi mumkin. Lekin masalaning ikkkinchi jihatiga ko‘ra aynan mana shu tartibsizligi uning o‘ziga xosligini taminlab turgan vositalarning asosiylaridandir. Ushbu holatda esa norasmiy muloqotning yuqoridagi shakliga etiket shart emasmi degan o‘rinli savol paydo bo‘ladi. Etiketlar kerak, shuning uchun kerak-ki tartibsizlikni butunlay yo‘qotish uchun emas, aksincha uni ma’lum me’yorda saqlab turish uchun kerak. Zero, biz do‘stlar va tanishlar davrasida bo‘ladigan muloqotlar natijasi o‘laroq jamiyatdagi o‘z o‘rnimizni topamiz. Do‘stlarmiz va tanishlarimiz biz yaratayotgan imoratlarimizning ustunlari ekan, ustunlar mustahkamligi bevosita muomala va muloqotimizga bog‘liqdir.

Jamoadoshlar o‘rtasidagi muloqotlar ham rasmiy, ham norasmiy tarzda bo‘ladi. Quyida biz norasmiy davralarida ya’ni kasbdoshlarning bazmlar, uchrashuvlar va o‘zaro suhbatlarida foydalanilishi lozim bo‘lgan etiketlariga to‘xtalmoqchimiz. Eng muhimi bu davralar qanchlik norasmiy bo‘lmasin, jamoadoshlar suhbatiga suhbatdoshlarning lavozimi o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Aynan bu davradagi muloqotda oila, do‘stlar davrasidagi muloqotlardan farqli gender yoki yosh xususiyati emas, kasbiy daraja birlamchi hisoblanadi. O‘zaro murojaatlar davomida lavozimlarning, darajalarning ismlari bilan birgalikda ya’ni *Professor Ahrorov, o‘rtoq boshliq* shaklida aytilishi ham jamoadoshlar muhitiga mos etiketlardan sanaladi. Jamoada yosh jihatdan kichik bo‘lishga qaramasdan lavozimi yuqori bo‘lgan shaxslar jamoaga buyruq berish jarayonida buyruq shaklida emas, ba’lki taklif shaklida tanishtirishi me’yoriy etiketlardandir.

Jamoadoshlar davrasidagi muloqotlarimiz xoh rasmiy bo‘lsin, xoh norasmiy o‘z jamoamizni topishimizning xaritasidir. Jamoamiz esa bevosita kasbimizning xaritasi. Bundan xulosa qilish mumkinki, muloqotimizning yuqoridagi shaklida etiketlarga rioya qilish ya’ni me’yoriy munosabat xaritani muvaffaqiyatli topishimiz garovidir.

Kundalik muloqoti bo‘yicha quydagi etiketlarni tavsiya qilib qolamiz:

- Murojaat bosqichi eng asosiy bosqich hisoblanadi, bu bosqichni esa *kechirasiz, mumkin bo‘lsa* kabi jumlalar bilan boshlagan holda adresant ismi bilan murojaat qilgan ma’qul. “Kishining o‘z nomi har qanday tilda eng shirin tovushlar yig‘indisi sanaladi” (5:113) Murojaat birligi shunday nutqiy vositaki, u nafaqat “aloqani o‘rnatish”, balki “aloqani ushlab turish, mustahkamlash, davomiyligini ta’minlash” vazifasini ham bajaradi. Shu sababli murojaat bosqichiga alohida e’tibor qarating va ismlari oxiriga hurmat va erkalovchi qo‘shimchalardan foydalaning: *“Gulixon singlim”, “Murodbek uka”, “Barchinoy opa” “Navbahor do‘stim”, “Qadrdonim Mohinur* (oila va do‘stlar davrasidagi muloqotlarga tavsiya etiladi) singari;
- Tanishuvda e’tiborli bo‘ling va hurmatingizni ifodalang. O‘zingizni tanishtirayotganda qisqa, lo‘nda va aniq tasvirlang. Maqtanchoqlik elementlariga yo‘l qo‘ymang. (6:62)
- Buyruq shakli o‘rniga katta yoshdagilarga nisbatan iltimoslardan, kichik yoshdagilarga nisbatan so‘roq va taklif shakllaridan foydalaning: *Bozordan yangi daftar olib kelib bering, iltimos”, “Menga javondagi kitobni uzatib yubora olasanmi?, “Murodbek uka, kel shuni birgalikda to‘g‘rilab qo‘yamiz , eeling, biz shu bu shakllarga to‘g‘rilab qo‘yamiz, balki, shunday qilganimiz ma’quldir”* kabi. (bu etiketimiz esa jamoadoshlar o‘rtasidagi muloqotlarga tavsiya etiladi)
- Kattalar tanqid qilsa quloq tutib tinglang, kichkinalarni tanqid qilishdan oldin, o‘zingizning kamchiligingiz haqida ham to‘xtalib o‘ting: ***“****Oldinlari menda ham shunday bo‘lardi, lekin sen bunday qilmaganing ma’qul, Menda shu xato kuztilgandi, ammo senda kuzatilmas deb umid qilgandim* kabi. (Oila va do‘stlar davrasidagi muloqotlarga tavsiya etiladi)

Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, me’yoriy etiketlar asosida qurilgan kundalik muloqoti umumiy ish kunimizning asosiy qismini tashkil qilib, ko‘pgina muammolarga yechim, mazmunli hordiq vazifasini ham bajaradi. Zero bizning muloqotimiz, bizning atrofimiz bilan bog‘lanishimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B va boshqalar ., Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti, T.:2004
2. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshev J., 9-sinf Adabiyot, T.: Yangiyo‘l polygraph service, 2010
3. Hoshimov O‘., Dunyoning ishlari,T.: Yangi asr avlodi, 2016.
4. Iskandarova G., Bola nutqini rivojlantirishga doir ba’zi mulohazalar Tilshunoslik dolzarb masalalari (Ilmiy maqolalar to‘plami) VI kitob, T.: Akademnashr, 2013.
5. Deyl Karnegi., Do‘st orttirish va odamlarga ta’sir o‘tkazish,T.:Yangi asr avlodi, 2014.
6. Bobojonov F., Shaxs imiji, T.: Yangi asr avlodi, 2017.